
Farg'onada viloyatimizdagi milliy madaniy markazlarni o'zida jamlagan "Do'stlik uyi" foydalanishga topshirildi

Bugun Farg'ona shahri Qirguli mavzesida "Do'stlik uyi"ning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, viloyat prokurori Baxtiyor Ismoilov, mutasaddi rahbarlar, viloyatdagi nemis, slavyan, yahudiy, tatar, qirg'iz, koreys, tojik, turk milliy madaniy markazlari hamda viloyat jamoatchiligi vakillari ishtirok etdilar.

Tadbirda so'z olganlar millatlararo hamdo'stlik, totuvlik va bag'rikenglikni mustahkamlash - Davlatimiz rahbari boshchiliklarida olib borilayotgan odilona siyosatning asosiy tamoyillaridan biri ekanini ta'kidlab, Prezidentimiz tashabbuslari bilan milliy madaniy markazlarga, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor ko'rsatilayotgani, bugun foydalanishga topshirilgan Do'stlik uyi ham ushbu yuksak e'tiborning namunasi ekanini qayd etdilar.

2022-11-19 20:13:49